



UDK: 81.1 (2)

Begoyim KARIMOVA,
ADU tayanch doktoranti
E-mail: begoyimkarimova_91@gmail.com

ADU professori, f.f.d. D.Abdullayeva taqrizi asosida

METODLARNING ADABIYOTSHUNOSLIKDAGI O'RNI

Аннотация

Ushbu maqolada metod va uning turlari, falsafiy, psixologik, gneseologik, biografik, formal v.h.k metodlar haqida, adabiyotshunoslik metodologiyasi, shuningdek, metodlarning adabiyotshunoslikdagi o'rni haqida so'z boradi. Ilm-fan, adabiyot, san'atning barcha janrlariga mansub, muayyan metodologik tamoyillar tadqiq va talqin etildi.

Kalit so'zlar: Metod, metodologiya, ilm-fan, adabiyot, san'at, ta'lim, tahlil, talqin, badiiy uslub.

THE PLACE OF METHODS IN LITERARY STUDIES

Аннотация

Этот текст является введением к диссертации или исследовательской работе о роли литературных методов в литературе. Рассматриваются различные методологии, связанные с литературой, а также их психологические, философские и социологические аспекты.

Ключевые слова: Метод, методология, наука, литература, искусство, образование, анализ, интерпретация, литературный стиль.

МЕСТО МЕТОДОВ В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

Annotation

The given text is an introduction to a dissertation or research work on the role of literary methods in literature. It discusses various methodologies related to literature and their psychological, philosophical, and sociological aspects.

Key Words: Method, methodology, science, literature, art, education, analysis, interpretation, literary style.

Kirish. Ilm-fan nihoyatda muvaffaqiyatli inson faoliyati hisoblanadi. Ilmga xos deb hisoblangan faoliyatlar orasida tizimli kuzatuv va tajriba o'tkazish, induktiv va deduktiv fikrlash, gipotezalar va nazariyalarni shakllantirish va sinovdan o'tkazish ilmiy jarayonlarning asosi hisoblanadi. Ilm-fanning turli sohalarida "metod" so'zi juda keng qo'llaniladi va har bir sohaning o'z tadqiqotlari, metodlari mavjud. Odatda, metodlar, masalan, ilmiy tadqiqotlar yoki texnologik jarayonlar doirasida, muayyan maqsadga erishish uchun tizimli va aniq belgilangan usullar, qadamlar yig'indisi sifatida tushuniladi. Metod o'zi nima degan savolga bugungi kunda judayam ko'plab va xilma xil javoblar topish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Metodlar bu – bilim olish yoki ma'lum bir maqsadga erishish uchun tizimli tarzda belgilangan yondashuv va protseduralar to'plamidir. Xususan, Falsafada metod – bu bilim olish, haqiqatni aniqlash, dunyoni tushunish uchun qo'llaniladigan tizimli yondashuv yoki usuldur. Falsafiy metodlar turli falsafiy oqimlarga qarab farq qiladi, ammo ularning umumiy maqsadi – inson tafakkurining chegaralarini o'rganish, haqiqatni izlash va falsafiy savollarga javob topishdir. "O'tgan asr falsafasida dialektik materializm bilishning eng umumiy, eng asosiy va ustuvor metodi hisoblanar edi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'tgan asrda barcha ijtimoiy fan sohalariga uchun mazkur falsafiy tamoyil bilishning asosiy metodi va metodologiyasi vazifasini o'tadi" [2].

Psixologiyada metod, psixoanalitik tadqiqotlarda turlicha so'rovlar, kuzatuvlar, asosan, suhbat metodi asosida inson ruhiyatining nozik qirralarini, kechinma va hodisalarni tahlil qilishda qo'llaniladi. Qolaversa, so'rovnoma va testlar,

tahliliy metodlar insonlar ruhiyatini baholashda keng foydalanib kelinmoqda.

Ta'limda: O'qitish metodlari – o'quvchilarga ma'lum bir yoki ko'nikmalarni o'rgatish uchun qo'llaniladigan pedagogik usullar hisoblanib, bu metodlar turli shakllarda bo'lishi mumkin: amaliy metod, muloqot metodlari, o'rgatishning ko'rgazmali usuli (visual metod) va boshqalar.

Adabiy metod – bu adabiyotshunoslikda tahlil va talqinni amalga oshiruvchi nazariy asoslar va usullar to'plami bo'lib, har bir metod o'zining nazariy yondashuvi bilan ajralib turadi va ular turli adabiy asarlarni tahlil qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. "Agar badiiy tafakkur tarzini anglatuvchi metod gneseologik (ya'ni badiiy bilish bilan bog'liq) kategoriya bo'lsa, uslub antropologik, ya'ni ijodkor shaxsi bilan bog'liq bo'lib, uning ijodiy individualligini belgilaydi. Shundan ko'rinadiki, metod g'oyaviylik, uslub esa badiiylik hodisasidir" [4].

Tahlil va natijalar. "Adabiyotshunoslik metodologiyasi ilmiy-nazariy asosga ega fan bo'lib, uning vazifasi adabiyotshunoslik fanining asoslarini va uning alohida bo'limlarini yaratish prinsiplari, ularni tadqiq etish usullari, shuningdek, ushbu metodlarning samaradorligini o'rganishdan iborat, desak, mubolag'a bo'lmaydi. "Binobarin, metodologiya, mutlaqlashtirilmagan va ideallashtirilmagan holda, inson tasavvuri va tafakkuri kashf etgan barcha ilmiy-ijodiy kashfiyotlarni tadqiq etishning turli xil vosita usullari majmuidir. Demak, ilm-fan, adabiyot va san'atning barcha turlari va janrlariga mansub asarlar muayyan metodologik tamoyillar asosida tadqiq va talqin etiladi. Har qanday sohaning metodologik tamoyillarini aniq belgilash mazkur sohaning metodologik asoslarini topish demakdir" [6]. Bir so'z bilan

aytganda, adabiyotshunoslik metodologiyasi; o'tmish va hozirgi zamon adabiyotini o'rganishning tamoyillari va ilmiy usullari ustida bahs yuritadi.

“Har qanday fan metodologiyasi, o'sha fan obyektining xususiyatlari tomonidan belgilanadi, adabiyotni muvaffaqiyatli o'rganish uchun, uning maqsadi, o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish qonuniyatlari, jamiyat hayotiga ta'siri va madaniyatning boshqa fenomenlari bilan aloqasi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak. Faqat, adabiyotning haqiqiy xususiyatlarini va rivojlanish qonuniyatlarini bilish, uni qanday metodlar yordamida samarali o'rganish mumkinligini belgilashga yordam beradi” [7]. “Metodologiya” tushunchasi ilmiy adabiyotlarda “1) biron fanga tatbiq etiladigan tadqiqot usulining majmui; 2) ilmiy bilish va dunyoni o'zgartirish metodi haqidagi fan” tarzida izoh beriladi” [2]. Metodologiya nazariyasi bilan maxsus shug'ullangan adabiyotshunos olim B.Karimov metodologiyada “nima uchun”, “nima” va “qanday” degan muhim uchta savol bor”ligi xususidagi masalani ta'kidlaydi. Tabiiyki, har bir metod o'ziga xos prinsiplarga va nazariy asoslarga bo'ysunadi. Adabiyotshunoslik metodologiyasiga oid mavjud manbalarda uning asosiy masalalari quyidagicha belgilanadi:

“1. Adabiyotning jamiyat hayoti bilan bog'liqligi, uning jamiyatni o'zgartirishdagi faolligi, sotsial hayot bilan aloqasi va ijtimoiy-ma'rifiy rolini o'rganish;

2. adabiyotning rivojlanish qonuniyatlari. Uning mazmun, mohiyati, an'anaviylik va yangilik, xalqchilik va partiyaviylik kabi masalalar;

Adabiyotshunoslikdagi maxsus usullar va alohida adabiy asarlar shakli va mazmuni bo'yicha metodologik o'rganish, tadqiq etish;

Yordamchi adabiyotshunoslik fanlarining metodologiyasi, masalan, tekstologiya, tarixiy manbalar bilan ishlash va hokazo” [7].

Adabiyotda juda ko'plab metodlar mavjud va bu metodlarni olimlar adabiy matnni turli nuqtai nazarlardan o'rganish uchun qo'llaydilar.

Umuman, adabiyotshunoslikda badiiy asarga yondashuvning turlicha usullari mavjud. Xususan: Biografik, sotsiologik, qiyosiy-tarixiy, gneseologik, ontologik, germeneytik, lingvistik yondashuv kabi.

Qolaversa, fenomenologik, ekzistensial, morfologik, statistik, struktural, psixologik, formal metodlar kabi usul va yondashuvlar ham adabiyotshunoslik metodologiyasida o'z o'rni va vazifasiga egadir. Misol uchun formal metod haqida so'z borganda aytilish mumkinki, rus formalistlari badiiy asarning shakliy-kompozitsion unsurlariga muhim nazariy-estetik kategoriya sifatida qaraydi. “Formal metod vakillari tomonidan 20-yillarda struktural poetika, informatiya nazariyasi, belgilar nazariyasi kabi masalalar muhim hisoblangan bo'lsa, 20-yillarning ikkinchi yarmidan e'tiboran badiiy adabiyotga adabiyot olamidagi tizim sifatida qarash, bora-bora shakl va mazmun birligini ifodalaydigan universal ilmiy metod holatiga keladi. G'arbiy Yevropada adabiyot va san'atda formalizm unsurlari, xususan, nemis va fransuz shoirlari ijodida ko'zga tashlanadi. Ular uchta nuqtaga – konstruksiya tamoyillariga, shaklga hamda “san'at tarixi ismsiz bo'lsin” shioriga alohida e'tibor beradi. San'at tarixi ismsiz bo'lsin shiorini nemis olimi G.Velflin o'rta tashlaydi (Kunstgeschichte ohne namen) – “Istoriya isskustva bez imen” tamoyili keyinchalik fransuz strukturalisti R.Bart asarlarida “Muallif o'limi” (smert avtora) tarzida namoyon bo'ldi” [1].

A.V.Korovashko o'zining “M.M.Baxtin i formalnaya shkola: K sovremennim diskussiyam” maqolasida Baxtinning formalizmning ijtimoiy va ma'naviy aspektlarini tanqid qilishi hamda, formalistlarning adabiyotda faqat stilistik va strukturaviy elementlariga e'tibor qaratishlarini, lekin adabiy

asarlarda ijtimoiy va tarixiy muhitni hisobga olishmayotganliklarini ta'kidlaganini aytib o'tadi.

O'zbek adabiyotshunosligi metodologiyasida juda kam tilga olingan yana bir metod bu – ontologik tahlil metodidir. Ontologiya – (yunoncha,ontos-borliq,logos-ta'limot) borliq haqidagi ta'limot demakdir. Barchamizga ma'lumki, bu termin sof falsafiy kategoriya bo'lib, falsafa fanining asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etuvchi muhim bo'limlardan biri hisoblanadi. “Bu terminni san'at asarlari (badiiy adabiyot, rassomchilik, haykaltaroshlik, musiqaga tatbiq qilgan birinchi estetist olim Roman Ingarden (1893-1970) bo'lgan. U “Estetika haqida tadqiqotlar” nomli kitobida badiiy asarlarda mavjudlik qatlamlari haqida batafsil ma'lumot bergan”. Adabiyotshunos Dिल्фуza Tuxliyevaning yozishicha; turk olimi Ismoil Tunalı “Sanat Ontolojisi” (sa'nat ontologiyasi) asarida R.Ingarden va N.Hartmanlarning mavjudlik qatlamlari haqidagi nazariyalarini o'rganadi. Tunalı ikki olimning mavjudlik qatlamlari nazariyasi asosida badiiy asarlarni tekshirishning yangi usulini taklif qiladi va uni ontologik tahlil usuli deb nomlaydi. Olim o'z asarining “Badiiy asarlarda borliq qatlamlari” deb nomlangan bo'limida har qanday badiiy asar tuzilishi jihatidan bir nechta qatlamdan iborat ekanligi va tahlilda mazkur qatlamlarni aniqlash muhim ekanligini ta'kidlaydi. Umuman olganda, metodlar bizga nima uchun kerak? Metodlar har qanday badiiy asarni “sifatli tahlil”, ya'ni jo'yalı, o'rinli tahlil qilish uchun zarurdir. Sifatli tahlil – bu badiiy asarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni tasniflash, muammolarni o'rganish, tadqiq etish va xulosa qilish jarayonidir.

“Sifatli tahlilning asosi falsafiy usuldır. U narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni mantiqiy tahlil qilish orqali narsa turlarini umumlashtiradi va narsa qonuniyatlarini tushunishga harakat qiladi. Sifatli tahlilning umumiy mantiqiy jarayoni quyidagicha bo'ladi: Bu muammo qanday? Konseptning ta'rifi qanday? Haqiqati qanday? Sababi nima? Tadqiqotning xulosasi qanday? Sifatli tahlil odatda quyidagi usullarni talab qiladi: Sabablarga ta'sirni tahlil qilish, taqqoslashni tahlil qilish, qarama-qarshiliklarni tahlil qilish, natijalar va funksiyalarni tahlil qilish, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, qolaversa, ilmiy xulosalar olish”. Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov badiiy asarga nisbatan tahlil (analiz) istilohini qo'llash joiz emas deb aytilgan fikrlarga qarshi o'laroq shunday yozadi: “Adabiy asar tahlili uni mexanik tarzda qismlarga ajratish emas, aksincha, ularning har birini butunning qismi o'laroq idrok qilish, ularning qay tarzda aloqaga kirishishi-yu badiiy butunlikning yuzaga kelishini ko'ra olish hamdir. YA'ni adabiy tahlil – asarni qismlarga ajratish va ularni butunga birlashtirish amallarining navbati bilan almashlab, bosqichma-bosqich izchillikda amalga oshirilishdan iborat aqliy jarayondır. Ayon bo'ldiki, adabiyotshunoslikda “tahlil” istilohi adabiy asarni o'rganish jarayonidagi “analiz” va “sintez” amallarini umumlashtirib ifodalar ekan” [4].

Inson yaralibdikı, o'zini anglashga, o'zi yashab turgan borliqni tushunishga, butun sir-sinoatlari bilan idrok qilishga, voqea va hodisalarning tub mohiyatiga yetishga, ularni tahlil qilishga, tabiat va jamiyat bilan bog'liq haqiqatlarni anglashga intiladi. O'zi yashab turgan dunyoda munosib o'rnini topishga urinadi. Badiiy adabiyot dunyoni anglash vositasi hamdir. Yozuvchi asarlari orqali dunyoni tahlil va tafakkur qilishga harakat qiladi, o'quvchi esa ijodkor ko'zi bilan borliqni va undagi voqea-hodisalarni anglab yetishga urinadi. “Ko'za ichidagini to'kadi” deganlaridek, dunyoda birorta yozuvchi yo'qki, o'zining xotiralari, his-tuyg'ulari va anglashlaridan kelib chiqib ya'ni biografik metodni qo'llamasdan asar yozgan bo'lsa?! Ma'lum bir adib ijodini tahlil qilish jarayonida eng ko'p avtobiografik asarlari ijodkor dunyosini ochib berilishiga, kengroq yoritilishi va to'laqonli tahlil qilishga yordamchi

bo'ladi, bu orqali bevosita yozuvchi haqida va u yashagan davr, muhim ijtimoiy-siyosiy voqealar haqida ham tahlilchida dunyoqarash shakllanadi. Adabiyotshunos olim D.Quronov o'zbek adabiyotshunosligida biografik metodni yetarlicha samara bilan qo'llanilmayotganini sababini biografik materiallarning kamligi, yetarli emasligi bilan izohlaydi; "Biografik metod badiiy asar muallifining hayot yo'li kontekstida o'rganishni nazarda tutadi. Badiiy asarda ijodkor shaxsiyati akslangani bois undagi qator o'rinlar muallif biografiyasi kontekstida yorqinroq anglashiladi. Shunga ko'ra, biografik metod asarga muallif tomonidan yuklatilgan mazmunni anglashda yetakchi ahamiyat kasb etadi. Masalan, Abdulla Qahhorning "O'g'ri" va "Daxshat" hikoyalari o'tmishdan baxs yuritadi, biroq ularni biografik kontekstda olinsa, adib har ikki hikoyada ham ular yaratgan davr muammolarini badiiy idrok etishga, o'sha davr haqidagi, davr kishilari haqidagi fikrlarini ifodalashga harakat qilgani anglashiladi" [5]. Shuningdek, adabiyotshunos olim biografik metodning qanchalik samarali bo'lishi, ko'p jihatdan tadqiqotchi qo'l ostidagi biografik materialga ham bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tadi. O'zbek adabiyotshunosligida biografik va avtobiografik asarlar tadqiqi bo'yicha bir necha olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Xususan, U.Normatov, N.Karimov, H.Boltaboyev, D.Quronov, B.Karimov o'z tadqiqotlarida biografik asarlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida yozib qoldirganlar. Bir qancha o'zbek yozuvchilari ham avtobiografik va biografik asarlar yozib, o'zbek adabiyotshunosligida ushbu janrlarning shakllanishiga o'z xissalarini qo'shganlar. Misol uchun Sadridin Ayniyning

"Esdaliklar", Oybekning "Bolalik", Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar", G'afur G'ulomning "Shum bola" asari, Odil Yoqubovning "Muzqaymoq", Sharif Boshbekovning "O'zim haqimda" kabi asarlar avtobiografik asarlar sirasiga kiradi. Jahon adabiyotida esa avtobiografik asarlar sirasiga Albert Kamyuning "Notebooks"(Daftarlar), Jek Londonning "Men anglagan hayot", "John Barleycorn"(Mayxo'r xotiralari), F.M.Dostoevskiyning "Yozuvchining kundaligi", Kristi Brownning "My left foot"(Mening chap oyog'im), Frida Kaloning "Ishq va iztirob", O'g'uz Atayning "Bir olimning romani" Anatoliy Vinogradovning "Paganini qismati" kabilarni kiritish mumkin. Adabiyotshunos olim Aziz Qayumov o'zining "Alisher Navoiy" (esse) va "Zahiriddin Muhammad Bobur" nomli asarlarida avvalo bu ikki buyuk shaxsning avtobiografiyasiga murojaat qiladi, ularning bolaligi, yashab, ijod etgan davri haqida ma'lumot to'plab, so'ng asar yozishga kirishadi. Tabiiyki, O'quvchini zeriktirib qo'ymaslik uchun tasvir shakli badiiylashtirilib, muallif o'zining hayolat mahsullaridan ham foydalanadi.

Xulosa va takliflar. Adabiyotshunoslikda metodning o'rni beqiyosdir, chunki metodologiya adabiyotshunoslik tadqiqotining asosiy yo'nalishini belgilaydi va ilmiy izlanishlarning aniq va tizimli bo'lishini ta'minlaydi. Adabiyotshunoslikda metodning rolini o'rganish, shuningdek, tadqiqotchi uchun adabiy asarlarni yanada to'g'ri va chuqur tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, turli metodlarning integratsiyasi va sintezlanishi adabiyotshunoslikni yanada kengroq va jozibali qilishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Adabiyotshunoslikda modernistik analiz metodlar klassifikatsiyasi. O'quv – uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2024.
2. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – Toshkent: Muharrir, 2011.
3. Quronov. D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018. – 448 b.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Xalq merosi, 2004.
5. Qahramonov.Q "Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari". Monografiya // e-adabiyot.uz 2010.
6. Методология литературоведения. Краткая литературная энциклопедия. – Т., 1978.
7. Adabiyotshunoslikda modernistik analiz metodlar klassifikatsiyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2024.